Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

MADANIY BEGONALASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-FALSAFIY EVOLUTSIYASI

Axmadjonova Botirali qizi Anora*
Namangan davlat universiteti doktoranti
✉ anoraisakova404@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada madaniy begonalashuv tushunchasining falsafiy tarix davomidagi evolyutsiyasi tahlil qilinadi. G.Gegelning idealistik talqinidan boshlab, K.Marksning ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvi, ekzistensializm vakillari hamda Frankfurt maktabi nazariyalari orqali ushbu kategoriyaning mazmun-mohiyati kengayib borgani ko'rsatiladi. Alohida e'tibor madaniy begonalashuvning boshqa turdosh tushunchalardan farqlariga qaratiladi. Muallif axborotlashgan jamiyat sharoitida ushbu tushunchaning yangi — raqamli begonalashuv ko'rinishida namoyon bo'lishini asoslaydi.

Kalit so'zlar

begonalashuv, madaniy identiklik, ekzistensializm, Frankfurt maktabi, axborotlashgan jamiyat, raqamli begonalashuv.

DOI: 10.5281/zenodo.21743564

KIRISH

Hozirda barcha jamiyatlar uchun birdek namayon bo'layotgan ijtimoiy uzoqlashish va virtual integratsiya hodisalari, shaxs qarashlari, xulq-atvori va madaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ushbu hodisalar bir-biriga chambars chars bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini taqazo etmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida begonalashuv jarayoni, o'z xalqining milliy urf-odatlari va qadriyatlarining qadrsizlanishi va unut bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Go'yoki, yoshlar o'z identitetini yo'qotgan, unversallashgan hamda hech qaysi millat va madaniyatga xos bo'lmaydigan va tegishli bo'lmaydigan hisni singdirib olishmoqda. Bu jarayon jamiyatda yoshlar orasidagi madaniy begonalashuv deb atashimiz mumkin. Madaniy begonalashuv (alienatsiya) tushunchasi ijtimoiy falsafada insonning o'z mahsuli, mehnati, jamiyati va o'z-o'zidan ajralib qolish jarayonini ifodalaydi.

Begonalashuv tushunchasi falsafa tarixida chuqur ildizlarga ega bo'lib, u asrlar davomida turli nazariy-metodologik rakurslardan o'rganib kelingan. Uning zamonaviy ijtimoiy-falsafiy mazmunini to'liq anglash uchun avvalo ushbu kategoriyaning tarixiy-falsafiy evolyutsiyasini ko'rib chiqish zarur.

Madaniy begonalashuv tushunchasini aniq belgilash uchun avvalo uning boshqa turdosh tushunchalardan farqini ko'rsatish zarur. Ijtimoiy begonalashuv — shaxsning ijtimoiy institutlar, guruhlar va jamoalar bilan aloqasining uzilishi; psixologik begonalashuv — shaxs ichki dunyosining o'z tuyg'ulari va motivlaridan uzoqlashuvi; mehnat begonalashuvi — Marks tahlil qilgan, ishchi kishi faoliyatining o'zidan ajralishi. Madaniy begonalashuv esa bulardan farqli o'laroq, insonning o'z madaniy muhiti — milliy an'analari, qadriyatlari, tili, diniy va tarixiy merosi — bilan aloqasining uzilishini, bu madaniy boyliklardan uzoqlashuvini anglatadi.

Asosiy qism. Begonalashuv kategoriyasining falsafiy tafakkurdagi ilk ko'rinishlari qadimgi Yunoniston faylasuflarining inson va kosmos, shaxs va polisning o'zaro munosabatlariga oid qarashlarida uchraydi. Biroq bu tushunchaning ilk mukammal falsafiy talqini yangi davr falsafasida, xususan G.Gegel merosida namoyon bo'ldi. Gegel begonalashuvni mutlaq ruhning o'z-o'zidan uzoqlashuvi va keyinchalik o'z-o'ziga qaytishi sifatida

talqin qildi. Uning fikricha, tarix — bu ruhning begonalashuv va begonalashuvdan chiqish jarayonidir[1]. Ushbu idealistik talqin keyinchalik materializmning asosiga qurilgan yangi talqinlar uchun zamin yaratdi.

Bu fenomen haqida ko'plab olimlar tadqiqotlarini olib borishgan bo'lib, eng birinchilardan bo'lib, Karl Marksning ishlarida kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarida ishchi o'z mehnati mahsulidan, o'z tabiatidan va boshqa insonlardan ajralishi sifatida chuqur tahlil etilgan[2]. Karl Marx esa begonalashuv tushunchasini eng mashhur va chuqur ijtimoiy-iqtisodiy mazmunda ishlab chiqqan faylasufdir. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan madaniy begonalashuv nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, axborot va ruhiy sohalarda namoyon bo'ladi. U shaxsning milliy-madaniy o'zligini, qadriyatlar tizimini va ijtimoiy aloqalarini zaiflashtirib, "begona"lik tuyg'usini kuchaytiradi[3]. Aslini olganda "begonalashuv" tushunchasi chuqur falsafada uzoq tarixga ega bo'lib, turli davrlarda turli ma'nolarda ishlatilgan. Begonalashuv g'oyasini falsafada birinchi marta chuqur tahlil qilgan mutafakkir G.W.Gegel hisoblanadi. Uning "The Phenomenology of Spirit" ("Ruhning fenemonologiyasi") asarida birinchi bo'lib ishlatib, ruhning o'zini rivojlantirish jarayonida o'z mahsulidan vaqtincha ajralib turishini tavsiflagan[4]. Demak, tushuncha falsafiy qarashlardan keyinchalik iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ham ko'chgan va kengroq ma'noga ega bo'la boshlagan.

XX asrning birinchi yarmida ekzistensializm vakillari begonalashuv muammosiga butunlay yangicha yondashuv taklif etdilar. M.Xaydegger[5] "Das Man" (odamlar to'dasi) tushunchasi orqali zamonaviy texnogen sivilizatsiyada insonning o'z haqiqiy borlig'idan uzoqlashuvini, jamiyatning noindividual, sanoqsiz ommaga singib ketuvini falsafiy jihatdan tahlil qildi. Ya'ni, real hayot o'z ahamiyatini yo'qotib, virtual olamdagi hayotda sho'ng'ib, singib ketayotgan texnogen olamidagi shaxslar nazarda tutilgan. A.Kamyu[6] tomonidan noodatiy tarzda ifodalangan begonalashuv tushinchasi esa o'z absurdizmi tizimida insonning olamdan begonalashuvini, dunyo va inson o'rtasidagi mutlaq muloqotsizlikni badiiy-falsafiy tarzda tasvirlanadi.

Frankfurt maktabining tanqidiy nazariyasi begonalashuv muammosini ommaviy madaniyat va sanoat sivilizatsiyasi bilan bog'liq holda tadqiq etdi. M.Xorkxaymer va T.Adorno[7] "Ma'rifat dialektikasi" asarida madaniyat sanoati tushunchasini ishlab chiqib, ommaviy madaniyatning shaxsni qanday standartlashtirishi va o'zligidan begonalashtirishini ko'rsatdi. E.Fromm[8] "Sog'lom jamiyat" va "Sevish san'ati" asarlarida iste'mol jamiyatida insonning o'z sevish, yaratish va bo'lish qobilyatlaridan uzoqlashuvini "ega bo'lish" va "mavjud bo'lish" modalliklari orqali tahlil etdi. G.Markuze[9] "Bir o'lchovli inson" asarida rivojlangan industrial jamiyatda texnologik ratsionallikning shaxs tanqidiy tafakkurini qanday yo'q qilishini — "repressiv desublimatsiya" mexanizmi orqali — falsafiy jihatdan asosladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoshlar hayotiga shunchalik chuqur kirib borganki, ular endi faqat aloqa vositasi bo'lib qolmay, shaxsning ijtimoiylashuv muhitiga, dunyoqarash shakllantirishning asosiy kanaliga aylanib bo'lgan. Bu jarayonning madaniy begonalashuvga ta'siri bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi.

Algoritmik muhit va "filter pufakchasi"[10] fenomeni yoshlarning madaniy iste'molini to'liq boshqarib qo'ymoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, video platformalari va musiqa ilovalarining tavsiya algoritmlari foydalanuvchiga yoqqan kontentni ko'proq taklif qilib, asta-sekin uni o'z madaniy ildizlaridan uzoqlashtiradi va global, ko'pincha g'arbiy ommaviy madaniyat mahsulotlari "pufakchasiga" mahkam qilib qo'yadi. Natijada milliy musiqa, adabiyot, kino va san'at asarlari yoshlar madaniy iste'molining chekkasiga surilib qolmoqda.

Virtual ijtimoiylashuv real madaniy ijtimoiylashuvni siqib chiqarmoqda. Oila, mahalla, maktab va jamoat muhiti orqali o'tkaziladigan an'anaviy madaniy tajriba endi internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanayotgan virtual tajriba bilan raqobat qilishga majbur. A.M.Ismatov tadqiqotida ko'rsatilganidek, "axborot-

[1]Гегель Г.В.Ф. Феноменология духа. – Тошкент: 2005. – Б. 45.
[2]Marks K. Iqtisodiy-falsafiy qo'lyozmalar // Marks K., Engels F. Asarlar to'plami. 2-nashr. T. 42. -M., 1974. -B. 87-88.
[3]Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi: Tizimli yondashuv. – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – B. 79.
[4]Hegel G.W.F. The Phenomenology of Spirit / translated by A.V. Miller. – Oxford: Oxford University Press, 1977. – P. 294-295.
[5]Хайдеггер М. Бытие и время. – М.: Ad Marginem, 1997. – С. 89.
[6]Камю А. Миф о Сизифе. Эссе об абсурде. – М.: АСТ, 2001. – С. 45.
[7]Хоркхаймер М., Адорно Т.В. Диалектика Просвещения. Философские фрагменты. – М.: Медиум, 1997. – С. 64.
[8]Фромм Э. Здоровое общество. – М.: АСТ, 2009. – С. 120
[9]Маркузе Г. Одномерный человек. – М.: АСТ, 2003. – С. 78.
[10]Pariser E. The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You. – New York: Penguin Press, 2011. – P. 44.

lashgan jamiyat shaxsning ijtimoiylashuviga ta'sir etayotgan yangi qadriyatlar (virtual urf, madaniy gegemoniya, kiberbulling) tizimini shakllanishiga, ijtimoiy munosabatlar paradigmasida marginallik va ijtimoiy-madaniy begonalashuv jarayonlarini keltirib chiqaradi"[11].

"Doimiy ulanish" holati inson psixikasiga va madaniy ongsiz dunyosiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatmoqda. Smartfonlar va gadjetlar yoshlarni real madaniy muhitdan ajratib, ularga parallel virtual dunyo taklif etmoqda. Bu jarayon S.Turkl tomonidan "yolg'iz birga" (alone together)[12]— ko'pchilik ichida bo'la turib, aslida yolg'iz qolish paradoksi — sifatida ta'riflangan.

Hozirgi kunda, ko'plab muxokamalarga sabab bo'layotgan, internet tarmoqlarida tarzda barchaga salbiy ta'sir o'tkazayotgan ommaviy madaniyat mahsulotlari — xorijiy seriallar, musiqa, kompyuter o'yinlari, ijtimoiy tarmoq madaniyati — yoshlarning qadriyatlar tizimiga, nutq madaniyatiga, estetik did va hayot tarzi standartlariga bevosita ta'sir etmoqda. Bu ta'sir ko'pincha passiv va ongsiz tarzda kechib, yoshlar o'zgarishlarni sezmasdan turib boshqa madaniyat modellari bilan identifikatsiya qiladilar. Natijada milliy kiyim-kechak, milliy oshxona, milliy musiqa va san'at shakllari "eskirgan", "qo'pol" yoki "viloyatlik" sifatida idrok etilishi mumkin. Madaniy begonalashuv jarayonida an'anaviy ijtimoiy institutlar — oila, mahalla, diniy va madaniy jamoalar — ning madaniy ta'sirini yo'qotishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu institutlar an'anaviy jamiyatda yoshlarning madaniy ijtimoiylashuvining asosiy kanalini tashkil etar, ularda milliy qadriyatlar, tilning boy ifoda vositalari, tarixiy xotira va madaniy odoblar avloddan avlodga o'tkazilardi.

Zamonaviy sharoitda oilaning madaniy ta'sir kuchi sezilarli darajada kamaygan. Ota-onalarning ish bilan ortiqcha band bo'lishi, yashash sharoitlarining o'zgarishi, ko'p avlodli oilalardan yadroviy oilalarga o'tish, qishloqdan shaharga migratsiya — bularning barchasi bolalar bilan katta avlod o'rtasidagi madaniy muloqot hajmini kamaytirmoqda. S.Alimov tadqiqotida ta'kidlanganidek, aholi migratsiyasi "ijtimoiy-axloqiy muhitning transformatsiyasida muhim omil bo'lib, an'anaviy madaniy aloqalar zaiflashuviga olib keladi"[13].

Mahalla instituti o'zbek madaniy hayotida an'anaviy ravishda kuchli ta'sirchan madaniy-tarbiyaviy muhit sifatida xizmat qilib kelgan. Biroq shahar mahallalarida raqamli texnologiyalar ta'sirida qo'shnilik aloqalari susayib, birgalikdagi madaniy faoliyat kamayib bormoqda. Yoshlar uchun mahalla endi asosiy ijtimoiy muloqot maydoni bo'lib qolmay, virtual ijtimoiy tarmoqlar bu o'rinni tobora ko'proq egallamoqda. O'zbek tilining ta'lim va ilmiy muloqotdagi mavqei masalasi ham madaniy begonalashuv bilan bog'liq dolzarb muammo sifatida qaralishi lozim. Xorijiy tillar, ayniqsa ingliz tilini bilish ijtimoiy muvaffaqiyatning muhim shartigiga aylanib borayotgan sharoitda, ba'zi yoshlarda ona tiliga nisbatan ikkilamchi munosabat shakllanishi kuzatilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimizning asosi" sifatida tilga e'tibor alohida ahamiyat kasb etadi[14].

XULOSA.

Yoshlar madaniy begonalashuvini keltirib chiqaruvchi omillar tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu jarayon birgina sababga emas, balki to'rt asosiy omil guruhining — axborot texnologiyalari va raqamli muhit; global ommaviy madaniyat va madaniy imperializm; an'anaviy ijtimoiy-madaniy institutlarning zaiflashuvi; ta'lim jarayonidagi madaniy uzilish — murakkab o'zaro ta'siriga asoslanadi. Bu omillarning kumulyativ ta'siri yoshlar madaniy begonalashuvini kuchaytiruvchi bir-birini mustahkamlash mexanizmlarini hosil qilmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda yoshlar madaniy begonalashuvini keltirib chiqaruvchi omillar tizimi murakkab va ko'p qatlamli tuzilmaga ega. Ushbu omillarni chuqur tushunish va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni falsafiy jihatdan tahlil qilish, keyingi boblarda batafsil o'rganiladigan muammo ko'rinishlari va uning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqishning nazariy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[11]Ismatov A.M. Axborotlashgan jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi (ijtimoiy-falsafiy tahlil): Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Namangan, 2025. – B. 20.

[12]Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011. – P. 105.

[13]Alimov S.K. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida: Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2022. – B. 16.

[14]Mirziyoev Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz asosi // Xalq so'zi. – 2019-yil 22-oktabr. – № 218 (7448).

1.Гегель Г.В.Ф. Феноменология духа. – Тошкент: 2005. – Б. 45

2.Marks K. Iqtisodiy-falsafiy qo‘lyozmalar // Marks K., Engels F. Asarlar to‘plami. 2-nashr. T. 42. -M., 1974. -B. 87-88.

3.Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi: Tizimli yondashuv. – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriy-oti, 2004. – B. 79.

4.Hegel G.W.F. The Phenomenology of Spirit / translated by A.V. Miller. – Oxford: Oxford University Press, 1977. – P. 294-295.

5.Хайдеггер М. Бытие и время. – М.: Ad Marginem, 1997. – С. 89.

6.Камю А. Миф о Сизифе. Эссе об абсурде. – М.: АСТ, 2001. – С. 45.

7.Хоркхаймер М., Адорно Т.В. Диалектика Просвещения. Философские фрагменты. – М.: Медиум, 1997. – С. 64.

8.Фромм Э. Здоровое общество. – М.: АСТ, 2009. – С. 120

9. Marks K. Iqtisodiy-falsafiy qo‘lyozmalar // Marks K., Engels F. Asarlar to‘plami. 2-nashr. T. 42. -M., 1974. -B. 87-88.

10.Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi: Tizimli yondashuv. – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – B. 79.

11.Hegel G.W.F. The Phenomenology of Spirit / translated by A.V. Miller. – Oxford: Oxford University Press, 1977. – P. 294-295.

12.Хайдеггер М. Бытие и время. – М.: Ad Marginem, 1997. – С. 89.

13 Камю А. Миф о Сизифе. Эссе об абсурде. – М.: АСТ, 2001. – С. 45.

14.Хоркхаймер М., Адорно Т.В. Диалектика Просвещения. Философские фрагменты. – М.: Медиум, 1997. – С. 64.

15.Фромм Э. Здоровое общество. – М.: АСТ, 2009. – С. 120